

**ISLOM DINI, ISLOM ILMI, ISLOM MA’NAYIYATI TARAQQIYOTI KIMLAR
NOMI BILAN BOG‘LIQ – ARABLARMI YOKI...?**

Maftunaxon Isaqova Mahmatali qizi

Farg‘ona viloyati Qo‘qon shahridagi

6-IDUM tarix fani o‘qituvchi

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo hududiga bir necha bor o‘zga yurtlar hukmdorlari tomonidan istilochilik yurishlari amalgalash oshirilgan bo‘lib, buning natijasida o‘zbek xalqi ko‘plab qiyinchiliklarni boshdan kechirgan. Har bir istiloning oqibatida ulkan ma’naviy hamda jismoniy yo‘qotishlar sodir bo‘lgan. Shulardan farqli o‘laroq, VII asrda arablar tomonidan Movarounnahrga³¹ islom dinini yoyish uchun bizning hududimizda tayyorgarlik ko‘rish maqsadida yurish qiladilar. Arablar sekin-astalik bilan 654-715-yillar davomida Maymurg‘, Chag‘oniyon, Buxoro, Termiz, Balx, Naxshab, Kesh, Samarqand, Choch va Farg‘ona hududlarini egallaydi va o‘zlari o‘rnatgan siyosiy hokimiyatni mustahkamlash uchun islom diniga da‘vat etishga – aholi o‘rtasida islom dinini yoyishga harakat qiladi. O’sha davrlarda Markaziy Osiyo aholisi o‘rtasida turli dirlarga e’tiqod qilish keng tarqalgan bo‘lib, aholi zardo‘shtiylik buddaviylik, xristianlik, moniy va qam kabi dirlarga e’tiqod qilganlar. Shu bois arablar Movarounnahrda mavjud dirlarga qarshi qattiq kurash olib borganlar. Ular qaysi shaharni zabit etsalar, o‘sha joyda darhol masjidlar qurar, aholisiga diniy ta‘lim berish uchun sahobalardan maxsus vakillar qoldirib ketardilar. Shu tariqa Buxoro, Samarqand, Shosh, Termiz kabi ko‘plab shaharlarda Qur’oni Karim va Payg‘ambar hadisi shariflari o‘qilib, targ‘ib qilinadi. Markaziy Osiyo aholisini islomga kiritish 715-yillargacha davom etadi. Islomlashdirish jarayoni juda qiyin va murakkab davr hisoblanadi. Bu jarayonda turli usullar qo‘llaniladi. Ibodatxonalar vayron etilib, ularning o‘rniga jome masjidlari bino qilindi. Islomni qabul qilganlarni rag‘batlantirib, pul, mablag‘ bilan mukofotlaganlar. Masjidga kelib ibodat qiluvchilar uchun 2 dirhamdan pul berilgan. Islom dinini qabul qilib, muslimon bo‘lgan shaxslar soliqlardan ozod etilgan. Islom diniga kirmaganlarga esa turli choralar ko‘rilib, ular o‘z yerlaridan mahrum etilgan yoki tovon to‘lagan.

Arablar tomonidan Movarounnahrda bunday ishlarning amalgalash oshirilishi natijasida Markaziy Osiyo aholisi eng to‘g‘ri haq din deb hisoblangan islom dinini qabul qildi. Aynan arablar Markaziy Osiyo aholisiga islom dini nima ekanligini, Qur’oni Karim qanday kitob ekanligini, yaratuvchi faqat Alloh, uning elchilari esa payg‘ambarlar ekanligini o‘rgatdilar. Qur’oni Karim va hadislar xalq ommasi orasida keng tarqalib, ta‘lim-tarbiya sohasida va ijtimoiy hayotda mustahkam o‘rin egallab, islom dini

³¹ Movarounnahr – arabcha daryoning narigi tomoni. Hozirgi zamondagi tarixiy-geografik ilmiy adabiyotda Movarounnahr deganda asosan Turkmanistondan tashqari bo‘lgan Markaziy Osiyo hududlari, ya’ni O‘zbekiston, Tojikiston, Qirg‘iziston va Qozog‘istonning janubiy qismlari tushuniladi

g‘oyalari hukmron mafkuraga aylanadi va ijtimoiy hayotning barcha sohasini o‘z nazoratiga oladi. Shu tarzda arablar Movarounnahrning siyosiy tizimiga va diniy e’tiqodiga o‘z ta’sirlarini o‘tkazganlar.

Ana shu davrdan boshlab hozirgi O‘zbekiston hududida islom ma’naviyati va ma’rifati o‘ziga xos ravishda shakllandi va taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi. Ushbu jarayon mintaqamizda yashaydigan turli xalqlarning dunyoqarashida, e’tiqodi va ma’naviy hayotida, ijtimoiy hamda insoniy munosabatlarida ijobiy inqilob yasadi va yangi sivilizatsiyani boshlab berdi. Ma’naviy axloqiy barkamollik hukmron bo‘lgan jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash g‘oyasi Qu’roni Karim va Hadisi sharif mazmunida o‘z yechimini topadi. Bu muqaddas kitoblar va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-marifiy kamolotining asosi bo‘lgan axloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga oladi. Islom, ayrimlar tushunchasiga ko‘ra, quruq aqidagina emas, eng avvalo ma’rifat ilmidir. Payg‘ambarimiz hadislari kishilarni donolik va ma’rifatga chaqirish, fahm-farosatga, o‘tkir zehnlilikka o‘rgatish, diniy-axloqiy dastur, shuningdek, asrlar davomida vujudga kelgan fan, adabiyot, madaniyatga doir diniy va dunyoviy ilmlar majmuasidir. Hadislarda ilmsiz e’tiqod bo‘lmasligi targ‘ib qilinishini nazarda tutgan holda, ma’naviy barkamol inson ilm sirlarini boshqalarga o‘rgatishi va jamiyat farovonligi uchun sarf qilishi ulug‘lanadi, bunday shaxs pokiza inson, deb hisoblanadi hamda uning amalga oshirgan ishlari jamiyat taraqqiyotiga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan, islomda ilm-fanni egallab ma’rifatli bo‘lish savobli ish deb qaraladi. Shu boisdan ham hadislarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izla,” – deya alohida ta’kidlanadi. Aksincha, bilgan narsani hech kimga o‘rgatmaslik ma’naviy taraqqiyotning qashshoqlashishiga sabab bo‘ladi. Bunday xasislik islom dinida qoralanadi. Umuman, islom dinining tom ma’nodagi mohiyati islomiy ta’lim-tarbiya diniy va dunyoviy bilimlarni barobar o‘rganishni targ‘ib qiladi va komil inson bo‘lib yetishishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, arablar tomonidan Movarounnahrga islom dinining olib kirilishi, bu yurt xalqiga islomga e’tiqod qilishni o‘rgatganliklari, vatanimiz hududlarida birinchi bo‘lib islom dini urug‘larini ekkanliklari ayni haqiqat, lekin islom dini, islom ilmi, islom ma’naviyatining taraqqiyot bosqichlari, bu dinning hozirgi butun islom olamida keng yoyilishi vatanimiz O‘zbekistondan yetishib chiqqan, ilm-marifat, madaniyat va ma’naviyat rivojlanishida o‘zlarining beqiyos xizmatlari bilan nom qoldirgan buyuk ajdodlarimiz nomi bilan bog‘liq.

Shu o‘rinda Markaziy Osiyo mutaffakirlarining islom ilmlari va madaniyatiga qo‘sghan hissalari to‘g‘risida fikr yuritsak, Movarounnahr va Xuroson zaminida yetishib chiqqan at-Termiziy, an-Nisoriy, Imom al-Buxoriy kabi buyuk zotlar jahonga mashhur oltita hadislар to‘plamini yaratib, islom ilmi va madaniyatining rivojlanishiga buyuk hissa qo‘sghanlar. Imom al-Buxoriy butun hayoti davomida 600 000ga yaqin hadislarni to‘play oldi va 20 dan ortiq hadislар to‘plamini yaratib, shulardan 7275ta sahih (ishonarli) hadislarni o‘z ichiga olgan “Al-Jome’ as-sahih” asari bilan insoniyat tarixi

zarvaraqlaridan munosib joy egalladi. Manbalarda aytishicha, Imom Buxoriyning sahih to‘plamiga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan 7275ta bo‘lib, takrorlanmagan holda 4000 hadisdan iborat bo‘lgan. Bunday ulug‘ zotning O‘zbekistonning tabarruk zaminidan yetishib chiqqanligi tasodifiy hol emas edi. Bu ko‘hna diyorimizda ilm-fan va madaniyatning ildizi chuqurligidan, o‘lkamizda azal-azaldan an’anaviy, madaniy-ma’naviy va diniy muhit mavjud bo‘lganligidan, eng muhimi, bu yurtda yashovchi insonlarning jamiyat va insoniyat yo‘lida har qanday ilmni tez va teran anglab, yuksak pog‘onalarga ko‘tarish layoqatiga ega bo‘lganliklaridan dalolat beradi. Islom ilmlari va madaniyatining rivojlanishida buyuk hissa qo‘sghan vatandoshimiz at-Termiziyy o‘zining “Al-Jome’ as-sahih”, “Shamoili Nabaviya” kabi asarlari bilan islom dunyosiga ma’lum va mashhurdir. Bularidan tashqari, ulug‘ o‘zbek shoiri va mutaffakiri Alisher Navoiy islom ta’lim-tarbiyasiga oid “Arbain” (qirq hadis) nomli asarida Muhammad sallallohu alayhi vasallamning ko‘rsatma va o‘gitlari, fe’l-atvorlari, musulmonchilikka oid ta’lim-tarbiya qoidalariga doir qirq hadisni sharhlab, targ‘ib qilgan.

Markaziy Osiyo mutaffakirlarining islom ilmlari madaniyati va ma’naviyatiga bo‘lgan munosabatlari va ularning rivojidagi o‘rniga e’tibor berilsa, ular diniy va dunyoviy ilmlarni uyg‘unlashtirganliklarini ko‘rish mumkin. Masalan, Abu Nasr Forobiy “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi asarlarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog‘liq, deb ta’kidlaydi. Al-Xorazmiy esa insonning xulq-atvori, xatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi. Sa’diy Sheroziy ilmga amal qilmaganlar – nodondur, ilmsiz odam boylikka, mansabga o‘ch, har xil tubanlikka mansubdir deb aytsa, Yusuf Xos Hojib asarlarida ezgulikka ilm orqali erishiladi, deya ta’kidlanadi. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiyning fikricha, odamgarchilikning eng yuksak belgisi – saxovatlilik va himmatlilik pokiza kishilarga xosdir.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo (hozirgi O‘zbekiston) hududida yetishib chiqqan mutaffakirlar islom ma’naviyati, ma’rifati va madaniyatiga umuminsoniy qadriyat sifatida qarab, uning rivojiga munosib hissa qo‘sghanlar.

Har qanday saltanat yoki davlat xalqni, uning turmush tarzini din orqali ma’naviy muhofaza qiladi. Bugun O‘zbekistonda diniy e’tiqod erkinligi qonun orqali himoya ostiga olingan. Har bir millat yoki elatning o‘z e’tiqodi bor, ular uchun masjidlar, ibodatxonalar buniyod etilgan va etilmoqda. Xalq e’tiqodi orqali Vatanga muhabbat, sadoqat uyg‘unligi shakllanib boradi. Islom dini dunyoni poklaydi, bu e’tiqod buyuk ajdodlarimizning islom dini ravnaqidagi ulug‘ xizmatlari samarasi o‘laroq qon-qonimizga singib ketgan. Shunday ekan, biz bugun butun dunyoga vatanimiz dong‘ini taratgan buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo‘lishimiz, el-yurt ravnaqi yo‘lida mehnat qilishimiz, jonajon vatanimizni diniy e’tiqod bilan, milliy g‘urur bilan ko‘z qorachig‘idek asrashimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rajabov R. O'zbekiston arablari//Moziydan sado-Toshkent,2004
2. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XVI asrgacha)-Toshkent, Sharq, 2017
3. Jo'rayev N . O'zbekiston tarixi-Toshkent, Sharq, 2011
4. Zamonov A., Ismatova N. O'zbekiston tarixi (IV asrdan XIII asr boshlarigacha)-Toshkent, Respublika ta'lim markazi, 2022